



HUQUQ-TARTIBOT MASKANLARIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Xidirov Furqat Shukurullveich

Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar
kafedrası dotsenti, podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20021251>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

mahalla huquq-tartibot maskanlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi, tizimli yondashuv, xizmatlararo hamkorlik, axborot almashinuvi, differensial chora-tadbirlar, jamoatchilik ishtiroki, samaradorlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mahalla huquq-tartibot maskanlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o'рни tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Maskanlar faoliyatining umumiy vazifalari, xizmatlararo integratsiyaning nazariy asoslari, profilaktik chora-tadbirlar shakllari va ularning amaliy samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, tizimli yondashuvdagi mavjud muammolar, cheklovlar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Zamonaviy jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi har bir davlat uchun ustuvor yo'nalishlardan biridir. Aholining huquqiy xatti-harakatlarini nazorat qilish, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularning ildiziga qarshi kurashish samaradorligi aynan profilaktik faoliyatning sifati va izchilligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, mahalla darajasida tashkil etilgan maxsus huquq-tartibot tuzilmalari – mahalla huquq-tartibot maskanlari jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim institutsional vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

2025-yildan boshlab yangi huquqiy asoslar bilan faoliyati boshlangan ushbu maskanlar aholi zich yashaydigan joylarda bir vaqtning o'zida bir nechta ichki ishlar organlari xizmatlarining faoliyatini uyg'unlashtirish imkonini yaratmoqda. Maskanlar tarkibida profilaktika inspektori, yo'l-patrul va patrul-post xizmati xodimlari, probatsiya xizmati va boshqa ijtimoiy xavfsizlik subyektlari jamlangan bo'lib, ular o'zaro hamkorlikda jinoyatga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishda qatnashmoqda¹.

Shunga qaramay, huquqbuzarliklar profilaktikasida maskanlarning roli hali to'liq ochilgan va tizimlashtirilgan emas. Ko'plab hududlarda xizmatlararo vakolatlar chalkashuvi, resurs tanqisligi, mahalla fuqarolari bilan ish olib borishdagi koordinatsiya zaifligi kabi muammolar

¹ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni

kuzatilmoqda². Shu bois, ushbu maqolada maskanlarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o'rnini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish, mavjud tajribani umumlashtirish hamda takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi barvaqt chora ko'rish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan tizimli faoliyat yurituvchi hududiy tuzilmadir. Ushbu maskanlar tarkibida xizmat qiluvchi turli yo'nalishdagi ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy vazifalari bevosita huquqbuzarliklarning profilaktikasi bilan bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Amaldagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 2-16-moddalarida ta'kidlanganidek, ichki ishlar organlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni aniqlashga mas'ul hisoblanadi. Mazkur normativ asoslar maskanlar faoliyatida ham amaliy ifodasini topgan. Xususan, profilaktika inspektori joylardagi oilaviy nizolarni aniqlash, muammoli fuqarolar ustidan nazorat o'rnatish va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali har kunlik huquqiy monitoringni amalga oshiradi.

Shuningdek, maskanlar tarkibidagi YPX va PPX xodimlari yo'l harakati xavfsizligi, jamoat joylarida tartib saqlanishi, jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan hududlarda doimiy patrullik qilish kabi vazifalarni bajaradi. Probatsiya xizmati esa jazoni ijro etishdan keyin nazoratdagi shaxslar bilan ishlash orqali ikkilamchi jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

Maskanlarda xizmat olib boruvchi xodimlarning umumiy profilaktik vazifalari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan muntazam monitoring olib borish;
- aholining muammoli qatlamlari bilan tizimli ish olib borish;
- jinoyatga moyil shaxslar va oilalarni aniqlab, ular ustidan hisob yuritish;
- huquqiy targ'ibot va mahalla yig'inlari bilan hamkorlikda tushuntirish tadbirlarini tashkil etish;
- xavfli holatlarni aniqlashda tezkor xabardorlik tizimini yo'lga qo'yish.

Shu tariqa, maskanlar ichki ishlar tizimining eng quyi, lekin bevosita fuqarolar bilan ishlovchi bo'g'ini sifatida xizmat qiladi. Ularning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi vazifalari aniq belgilangan bo'lishi va xizmatlar faoliyati muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi zarur. Aks holda, xizmatlararo to'qnashuvlar, mas'uliyatdan qochish va natijadorlik pastligi yuzaga kelishi mumkin.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o'rnini baholashda "tizimli yondashuv" tamoyili markaziy o'rinda turadi. Tizimli yondashuv – bu har bir xizmatni alohida emas, balki yagona maqsad sari yo'naltirilgan kompleks tizimning tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqish metodologiyasidir. Bunday yondashuv orqali xizmatlararo integratsiyani kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va umumiy xavfsizlik samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

² Farrux G'aniyev, Gulandon Ganiyeva, and Nozima Boymuradova. "Biriktirilgan xududda kriminogen vaziyatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 1, no. 16, 2024, pp. 112-114.

Nazariy jihatdan qaralganda, tizimli yondashuv umumiy boshqaruv nazariyasiga, ijtimoiy tizimlar modellariga va huquqbuzarliklar sotsiologiyasiga tayangan holda, huquqni muhofaza qilish faoliyatida bir-birini to'ldiruvchi va nazorat qiluvchi mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan shunday tamoyil asosida, maskanlarni "kompleks chora-tadbirlar markazi" sifatida shakllantirish zarurati yuzaga keladi.

Tizimli yondashuv doirasida har bir xizmatning funksiyasi quyidagilar asosida belgilanadi:

- ma'lum bir kriminogen xavf darajasiga qarab o'z vazifalarini aniqlash;
- boshqa xizmatlar bilan uzviy aloqada harakat qilish;
- real vaqt rejimida axborot almashish;
- fuqarolar va jamoatchilik bilan integratsiyalashgan tarzda ishlash³.

Bu yondashuvning asosiy g'oyasi – profilaktika faoliyatini bir martalik shaklda emas, balki doimiy, barqaror va tahliliy asoslangan tizimda tashkil etishdir. Misol uchun, maskanlar doirasida jinoyatchilikka oid axborotlar muntazam ravishda to'planib, xatar darajasi bo'yicha tahlil qilinib, rejalashtirishga asos bo'ladi. Shuningdek, xavfli oilalar, muammoli yoshlar va nazoratdagi shaxslar ustidan hisob yuritish, doimiy monitoring qilish tizimlari ishlab chiqilishi kerak.

Shuningdek, tizimli yondashuvda xizmatlar o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat va axborot almashinuvi mexanizmlarining aniq belgilanishi ham muhim omil hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i bilan xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan bo'lib, u maskanlarda "birlashtirilgan yondashuv" prinsipining joriy etilishini nazarda tutadi⁴.

Demak, tizimli yondashuv – bu faqat tashkiliy tamoyil emas, balki maskanlar samaradorligini oshirishga qaratilgan umumiy konsepsiyaning negizidir. Ushbu konseptual yondashuv orqali maskanlar oddiy xizmat joyidan "ijtimoiy xavfsizlik markazi" darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda turli hududlarda to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, maskanlarda xizmat qilayotgan xodimlar tomonidan turli shakldagi profilaktik ishlar yo'lga qo'yilgan va ayrim hollarda ijobiy natijalar ham kuzatilmoqda.

Avvalo, profilaktika ishlari avvalo ijtimoiy xavfli shaxslarni aniqlash va ular bilan tizimli ravishda ishlashdan boshlanadi. Bu degani — ilgari jinoyat sodir etgan yoki muammoli xatti-harakatlarga moyil bo'lgan shaxslar maxsus ro'yxatga olinadi va ularning xatti-harakatlari doimiy nazoratda bo'ladi. Shu bilan birga, bu shaxslar bilan suhbat o'tkazish, ularni mehnatga jalb qilish yoki zarur bo'lsa, mahallaning faollari ishtirokida jamoatchilik nazorati ostida saqlash tadbirlari o'tkaziladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori

⁴ O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

Ikkinchidan, yoshlar bilan ishlash ham profilaktik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, maktab va kollej o'quvchilari, ishsiz yoshlar orasida jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lganligi sababli, ular bilan maxsus suhbatlar, sport musobaqalari, huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda.

Uchinchidan, mahalla faollari, xotin-qizlar qo'mitasi, oqsoqollar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar ham o'z samarasini bermoqda. Masalan, janjalli oilalarda nizolarning oldini olish, ichkilikbozlikka berilganlarni davolashga yuborish, bexavotir muhit yaratish bo'yicha hamkorlikda ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmogda.

To'rtinchidan, aksariyat hududlarda texnologiyalardan foydalanish holatlari ham mavjud. Masalan, xavfsizlik kameralari, aholi xabardorligi uchun telegram guruhlar yoki tezkor aloqa tizimlari orqali fuqarolarning ogohlantirilishi amaliyotga tatbiq etilmogda. Bu orqali huquqbuzarliklar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan joylar oldindan aniqlanib, tezkor choralar ko'rilmogda.

Beshinchidan, probatsiya xizmatlari ham jinoyat sodir etib, jazoning yengil shaklida jazoni o'tayotgan shaxslar bilan ishlamoqda. Ularning ishga joylashuvi, oilasi bilan munosabatlari va jamiyatga qayta moslashuvi nazorat qilinmogda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu kabi chora-tadbirlar tizimli va rejalashtirilgan shaklda olib borilsa, u ijobiy natija beradi. Masalan, ayrim hududlarda jinoyatchilik darajasining pasaygani, fuqarolarning ichki ishlar tizimiga nisbatan ishonchi ortgani kuzatilmogda. Biroq barcha hududlarda ham bu ishlar bir xil yo'lga qo'yilmagan. Ba'zi maskanlarda xizmatlararo muvofiqlik sust, axborot almashinuvi yetarli darajada emas, fuqarolar bilan hamkorlik zaif bo'lib qolmogda.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari tomonidan amalga oshirilayotgan profilaktik faoliyatda ijobiy tomonlar bilan birga, tizimli yondashuvni to'liq amalga oshirishda qator muammolar va cheklovlar mavjud. Bu muammolar tizimda xizmatlararo hamkorlikning kuchsizligi, tashkiliy mexanizmlarning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi va moddiy-axborot ta'minotidagi kamchiliklar bilan bog'liq.

Birinchidan, xizmatlararo hamkorlikning huquqiy asoslari aniq belgilanmagan. Maskanlarda bir nechta xizmat vakillari faoliyat yuritadi, biroq ularning vakolatlari, mas'uliyatlari va o'zaro aloqasi bo'yicha aniq tartib mavjud emas. Natijada, ayrim hollarda faoliyatlar bir-birini takrorlashi yoki aksincha, muayyan faoliyat umuman amalga oshirilmay qolishi mumkin.

Ikkinchidan, xodimlar o'rtasida kasbiy, psixologik va tashkiliy jihatdan yagona yondashuv shakllanmagan. Har bir xizmat o'z ichki me'zonlari asosida faoliyat yuritishga odatlangan bo'lib, bu holat umumiy jamoaviy ishlash madaniyatiga to'sqinlik qilmogda. Maskanlar uchun yagona liderlik va koordinatsiya tizimi yo'qligi natijasida xizmatlararo integratsiya zaiflashmogda.

Uchinchidan, mahalla faollari, xotin-qizlar qo'mitasi, yoshlar yetakchilari kabi fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik yetarli darajada emas. Jamoatchilik ishtiroki past bo'lsa, aholining maskanlarga bo'lgan ishonchi ham kamayadi, bu esa profilaktik ishlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari doirasida tizimli yondashuv asosida huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish uchun bir qator amaliy va tashkiliy takliflar ilgari surilishi mumkin. Quyidagi takliflar bevosita amaliyotda uchrayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Birinchiidan, xizmatlararo hamkorlikning aniq mexanizmlari qonunchilik darajasida belgilanishi zarur. Bunda har bir xizmatning vakolat doirasi, mas'uliyati, qaror qabul qilishdagi ishtiroki va hisobot berish tartibi huquqiy jihatdan aniq ko'rsatilishi kerak. Bu esa faoliyatda chalkashlik va takrorlanishning oldini oladi.

Ikkinchiidan, xizmatlararo jamoa shakllantirish, kasbiy muloqot madaniyatini oshirish va umumiy vazifaga yo'naltirish uchun doimiy o'quv mashg'ulotlari va treninglar o'tkazilishi kerak. Ayniqsa, nizoli vaziyatlarda birgalikda harakat qilish, tezkor axborot almashinuvi va jamoa qarorlarini qabul qilish ko'nikmalari rivojlantirilishi muhim.

Uchinchiidan, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bo'yicha maskanlar faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari – mahalla faollari, nuroniylar, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda doimiy ravishda rejalashtirilgan tadbirlar o'tkazilishi kerak. Jamoatchilik ishtiroki — tizimli profilaktikaning ajralmas qismidir.

To'rtinchiidan, hududlarda jinoyatchilik holatini baholashga asoslangan holda individual yondashuv joriy etilishi lozim. Har bir mahalladagi kriminogen holatga mos ravishda chora-tadbirlar belgilanib, maskan faoliyati shunga mos ravishda yo'naltirilishi kerak. Bu differensial yondashuv tizimga moslashuvchanlik va aniqlik keltiradi.

Yuqoridagi takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maskanlar doirasida xizmatlararo tizimli yondashuv asosida ishlashni yo'lga qo'yadi degan fikrdamiz. Bu esa, o'z navbatida, huquqbuzarliklarning oldini olishda yanada samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla huquq-tartibot maskanlari zamonaviy jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Ularning faoliyatini tizimli yondashuv asosida tashkil etish, xizmatlararo hamkorlikni mustahkamlash, axborot almashinuvini tezlashtirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish orqali profilaktik ishlarning samaradorligini oshirish mumkin. Maqolada tahlil qilingan mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar maskanlar faoliyatining institutsional kuchayishiga xizmat qiladi va huquqiy tartibni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i;
4. Farrux G'aniyev, Gulandon Ganiyeva, and Nozima Boymuradova. "Biriktirilgan xududda kriminogen vaziyatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 1, no. 16, 2024, pp. 112-114.
5. Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113.

6. Ibragimov, Sherzod Shokirovich. "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 570-578.
7. Xudoyqulov Dostonjon Dilshod o'g'Li, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati insitutlari bilan o'zaro hamkorligi" *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 60-63.

